



## **SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I**

**SamVPMM Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi 5-sonli yig'ilish qarorlarini  
ijroga yo'naltirish to'g'risida**

SamVPMM Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi 5-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida **buyuraman:**

1. SamVPMM Kengashining 2025-yil 31-oktabrdagi 5-sonli yig'ilish qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.
2. SamVPMM Kengashi qarorlarida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlar 10 kun muddatda Kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktor**



**A.Sobirov**

Samarqand sh.  
3 noyabr 2025 yil.  
**86-son**

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi**

**Q A R O R I**

2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri

5/1-son

**SamVPMMda va maktablarda "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda  
"Kasbiy rivojlantirish soatlari" tashkil etish holati to'g'risida.**

Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "SamVPMMda va maktablarda "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda "Kasbiy rivojlantirish soatlari" tashkil etish holati to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov so'zga chiqdi: – O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ta'lim sifatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 21-iyunda PQ-231-sonli qarori hamda 2024-yil 7-avgustda 246-sonli vazirlik buyrug'i ishlab chiqildi va ijrosi ta'minlanmoqda. Bu bo'yicha quyidagilardan iborat:

O'qituvchilarga kasbiy mahoratini oshirish, metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratish;

O'qituvchilarni fan va uni o'qitish metodikasiga oid yangiliklar bilan tanishtirish;

O'qituvchilarning o'zaro dars kuzatish, reflektiv faoliyat olib borish va maktab negizida malaka oshirishi uchun sharoit yaratish;

Zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish uchun zarur imkoniyatlar yaratish;

O'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, jumladan, "Ustoz-shogird" tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish;

O'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi;

O'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi.

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" — bu o'qituvchilarning o'z ustida ishlash, bilimni yangilab borish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan uzluksiz o'quv-metodik jarayondir.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 30-iyundagi 216-sonli buyrug'i Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 8-sentabrdagi 336-sonli buyrug'i

| YO'NALISHLAR       | FANLAR                                   |
|--------------------|------------------------------------------|
| Ijtimoiy fanlar    | Tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya |
| Filologiya fanlari | Ona tili, rus tili                       |



|                            |                                                               |
|----------------------------|---------------------------------------------------------------|
| <b>Aniq fanlar</b>         | Matematika, informatika                                       |
| <b>Tabiiy fanlar</b>       | Fizika, biologiya, kimyo, geografiya                          |
| <b>Xorijiy tillar</b>      | Ingliz tili — oflayn, fransuz va nemis tillari onlayn shaklda |
| <b>Amaliy fanlar</b>       | Tasviriy san'at va chizmachilik, texnologiya                  |
| <b>Boshlang'ich ta'lim</b> | Boshlang'ich ta'lim                                           |

KRK va KRS jarayonlarini tashkil etish bo'g'inlari viloyatda jami 1275 ta umumta'lim maktablari mavjud. Bu maktablardan 175 ta tayanch maktab qilib olindi. Maktablardan 19 nafar master-trenerlar 3 kunlik maxsus o'quv kurslarida ishtirok etishdi. 440 nafar mentor-o'qituvchi saralab olindi. 11273 nafar yetakchi o'qituvchi.

Samarqand viloyatida o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari bo'yicha tumanlarda umumiy tahliliy ro'yxat shakllantirilgan bo'lib, davomati muntazam elektron tarzda yuritilmoqda. Tadbirlarning asosiy maqsadi: o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini yanada yaxshilashdan iborat.

Tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha 29-oktabr kuni tabiiy fan yo'nalishi o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarda viloyat bo'yicha 1221 nafar (97.1%) ishtirok etgan bo'lsa, viloyat bo'yicha 36 nafar (3,1 %) turli xil sabablarga ko'ra o'qituvchilar ishtiroki ta'minlanmagan

**Hamkorlik va hisobot tizimi:**

- tadbirlarni samarali tashkil etish maqsadida viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlar yo'lga qo'yilgan;

- har oyning oxirgi juma kuni Respublika miqyosida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga umumiy axborot hisobotlari taqdim etib borilmoqda.

2025-yil oktabr oyidan boshlab 11 ta fandan o'quv jarayonlari boshlandi (KRK tadbiri oyning 1 va 3 haftasi 3 soatdan 36 soat; KRS tadbiri oyning 2 va 4 haftasi 3 soatdan 36 soat).

**Ijtimoiy fanlar yo'nalishi (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya):**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 48 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1262 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 2916 nafar.

**Filologiya yo'nalishi (ona tili):**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 48 nafar.

- Yetakchi o'qituvchilar: 1264 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 3939 nafar.

**Filologiya yo'nalishi (rus tili):**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 49 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1248 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 3133 nafar.

**Tabiiy fanlar yo'nalishi (fizika, biologiya, kimyo, geografiya):**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 4 nafar.
- Mentor-trenerlar: 48 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1263 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 5406 nafar.

**Aniq fanlar yo'nalishi (matematika va informatika):**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 4 nafar.
- Mentor-trenerlar: 48 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1263 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 4817 nafar.

**Xorijiy tillar yo'nalishida (ingliz tili):**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 48 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1198 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 4165 nafar.

**Fransuz tili (darslar onlayn shaklda tashkil etiladi):**

- Master-trenerlar: 1 nafar.
- Mentor-trenerlar: 7 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 36 nafar.

**Nemis tili (darslar onlayn shaklda tashkil etiladi)**

- Master-trenerlar: 1 nafar.
- Mentor-trenerlar: 8 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 39 nafar.

**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi:**

- Tayanch maktablar soni: 45 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 48 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1266 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 11572 nafar.

**Texnologiya yo'nalishi:**

- Tayanch maktablar soni: 43 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 47 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1093 nafar.



- Fan o'qituvchilari (umumiy): 1787 nafar.

**Tasviriy san'at va chizmachilik yo'nalishi:**

- Tayanch maktablar soni: 44 ta.
- Master-trenerlar: 2 nafar.
- Mentor-trenerlar: 46 nafar.
- Yetakchi o'qituvchilar: 1018 nafar.
- Fan o'qituvchilari (umumiy): 1180 nafar.

Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi master-trenerlari (metodistlari) tomonidan o'rganish ishlari olib borildi. Pedagogik mahorat markazi metodistlari 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 17 ta tayanch maktabda "Kasbiy rivojlanish kuni" (KRK), 44 ta maktabda "Kasbiy rivojlanish soati" (KRS) hamda 21 ta tayanch MTTda "Metodik mahorat kuni" (MMK) tadbirlarini o'rganish ishlarini olib bordilar. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari tomonidan joylarda metodik yordam ko'rsatildi, kamchiliklar bo'yicha amaliy tavsiyalar va tushuntirishlar berildi, shuningdek, har bir tashkilot rahbariyatiga KRS va MMS tadbirlarini sifatli tashkil etish yuzasidan yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi. Tadbirlarning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- KRK, KRS va MMS tadbirlarining tashkil etilish holatini o'rganish;
- yetakchi o'qituvchi va pedagoglarning tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- mashg'ulotlarning metodik va tashkiliy ta'minotini tahlil qilish;
- kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.

Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazida ham "Kasbiy rivojlanish kuni va soati" tadbirlari tashkil etib borilmoqda. SamVPMMDa 2025-yilning 8 oy davomida "Kasbiy rivojlanish kuni va soati" tadbirlari kafedra va metodik xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan (Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan 6 marta, Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan 5 marta, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan 5 marta, Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan 6 marta, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan 5 marta, Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi fan metodistlari tomonidan 5 marta) jami 33 marotaba tashkil etildi. Mazkur tadbirlar doirasida xorijlik mutaxassis ishtirokida dars mashg'uloti va seminarlar o'tkazilib, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan amaliy tajriba almashinuvi yo'lga qo'yildi. Tadbirlar davomida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik metodlar amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, kommunikativ yondashuv, CLIL (Content and Language Integrated Learning), TBLT (Task-Based Language Teaching), Bloom taksonomiyasi, shuningdek, 5E modeli, 3+1 modeli va 4K modeli (Kreativlik, Kritik fikrlash, Kommunikatsiya, Kooperatsiya) asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qildi. Mazkur faol o'qitish texnologiyalari orqali ishtirokchilar o'z fanlarida zamonaviy ta'lim yondashuvlarini qo'llash,

dars jarayonini samarali tashkil etish hamda markazda tinglovchilarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha yangi tajriba va ko'nikmalarga ega bo'ldilar.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "SamVPMMda va maktablarda "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda "Kasbiy rivojlantirish soatlari" tashkil etish holati to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovga:

- SamVPMMda "Kasbiy rivojlantirish kuni"ni yuqori saviyada tashkil etilishini nazorat qilish;

- shahar va tumanlarda tashkil etilayotgan "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda "Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda nazorat qilish;

- shahar va tumanlarda "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda "Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni tashkil etilishida metodik yordam va tavsiyalar berish;

- shahar va tumanlarda tashkil etilayotgan "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda "Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni oylik hisobotlarini har oy oxirida Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova





**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri*

*5/2-son*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida bajarilishi holati to'g'risida.**

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, Ishchi guruh raisi G.Tagayevning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida bajarilishi holati to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, Ishchi guruh raisi G.Tagayev so'zga chiqdi: – Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida 2025-yil yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida quyidagilar o'rganildi:

Joriy yilning yanvar oyida professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasi belgilangan "Vaqt me'yorlari" asosida to'g'ri, talab darajasida rejalashtirilgan va pedagog portfoliosiga joylashtirilgan.

Kafedrada ayni paytda asosiy shtatda 8 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatadi. Shundan 1 fanlari bo'yicha psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, 1 nafari pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, 2 nafari katta o'qituvchi, 4 nafari o'qituvchilardir. O'rindoshlik asosida 6 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib borishadi.

O'quv yili davomida 1 nafar professor-o'qituvchi (G.Fayzullayeva) Finlandiyada stajirovka o'tagan.

Kafedrada 2025-yilda Rossiya Federatsiyasidan pedagogika fanlari doktori, professor Yuliya Gud o'rindoshlik asosida o'quv mashg'ulotlarini olib boorish uchun jalb qilingan.

2.6. Professor-o'qituvchilari tomonidan nufuzli xalqaro bazalarda (SCOPUS, Web of science va boshqa Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan bazalar) ro'yxatdan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar salmog'i.

Darslik 1 ta

O'quv qo'llanma 2 ta ( 2 ta nashrga tavsiya etilgan)

Uslubiy qo'llanma 2 ta

Uslubiy ko'rsatma 1 ta

OAK 19 ta xorijiy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 36 ta.

2.7. Kafedraning qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi hamda umumiy o'rta ta'lim sohasiga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi professor-o'qituvchilari salmog'i – 25 % (jami professor-o'qituvchilar soniga nisbatan).



Pedagogik markazni yuqori malakali professor-o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida mustaqil izlanuvchilikka 3 nafar A.Xurramov, F. Mansurov va G.Eshbekovalar qabul qilingan.

F.Mansurov – 13.00.07–Ta'limda menejment ixtisosligidan "Umumta'lim maktablarida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonini strategik rejalashtirish va boshqarish (O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyati misolida)" (PhD) dissertatsiyasi mavzusi va ilmiy rahbar etib pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Suvanova Kamola Raimkul qizi belgilangan. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga mustaqil tadqiqotchi sifatida qabul qilingan.

A.Xurramov – 13.00.07–Ta'limda menejment ixtisosligidan "Maktab rahbarlarida kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish (Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari yo'nalishi misolida)" (PhD) dissertatsiyasi mavzusi va ilmiy rahbar etib pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Ibragimov A'lamjon Amrilloevich belgilangan. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga mustaqil tadqiqotchi sifatida qabul qilingan.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan 5 ta xalqaro (Coursera, Udey, Udacity, Edx va boshqa) va 36 ta milliy (onlinedu.uz, edu.uz va boshqa) darajadagi mustaqil masofaviy malaka oshirish kurslarida ta'lim olgan.

Kafedraning 1 nafar professor-o'qituvchisi (K.Oqilova) "Xalq ta'limi a'lochisi" tarmoq mukofotlari bilan taqdirlangan.

Kafedrada Hindiston Bombay ITT bilan xorijiy hamkorlik, Samarqand MONO markaz, Samarqand shahar 19-maktab hamda Jizzax, Farg'ona, Toshkent viloyatlari pedagogik mahorat markazlari bilan hamkorlik memorandumlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasining vakant lavozimlariga joriy yilning fevral-mart oylarida G.Eshbekova, Sh.Mamorasulova, U.Shodiyorova, Sh.Aliyevlar lavozim uchun belgilangan tartibda tanlovdan o'tib mehnat shartnomasi asosida kafedrada faoliyatini boshladilar

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasi tomonidan 1 ta xalqaro konferensiyada mas'ullik, 1 ta respublika vebinari, 2 ta konferensaloqa darsi, 41 ta seminar va mahorat darslari o'tkazilgan, Pstdarg'om tumanidagi ko'rsatkichi past bo'lgan 106-maktab bilan ishlab kelinmoqda.

Kafedrada tinglovchilar hamda markaz professor-o'qituvchilari orasida 50 ga yaqin ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilgan, hujjatlari rasmiylashtirilgan. Jumladan, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlari olib borilgan, ulug' allomalarning tug'ilgan sanalariga bag'ishlangan ilmiy haftaliklar, seminar va anjumanlar tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan 28-30-aprel kunlari kafedra xodimlari G.Fayzullayeva, A.Xurramov, K.Oqilovalar Samarqand shahridagi Prezident



maktabida to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslari orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalariga keng joriy etish maqsadida xizmat safarida bo'lishdi. Shuningdek, mazkur qarorining mazmun-mohiyatiga bag'ishlab 2 ta viloyat seminari 4 ta tuman seminari va 16 marta mahorat darslari tashkil etilgan.

Kafedrada "Muammoga asoslangan o'qitish" yondashuvi negizidagi tizimli seminar va mahorat darslari uchun mualliflik dasturi yaratilgan

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasiga tegishli bo'lgan maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari rejada 13 ta amalda 10 ta, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari rejada 12 ta, amalda 9 ta, maktab amaliyotchi psixologlari rejada 7 ta, amalda 6 ta, maxsus-maktab internati tarbiyachilari rejada 2 ta amalda 2 ta guruh bajarilgan. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan maktab logopedlari 1 ta guruh dekabr oyida rejalashtirilgan.

Mazkur yo'nalishdan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan ishlar nazorati uchun har bir kafedraning o'quv yuklamasi hajmi to'g'ri shakllantirilgan, taqsimlangan va pedagogik markazning umumiy shtat birligi hamda soatlar hajmiga mos ekanligi tahlil qilinib, natijalar muvofiqlashtirilgan.

**Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarori va 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 sonli Farmoni hamda "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-241-sonli qarori, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmagan.**

1. Xalq ta'limi xodimlarining qonunchilikda belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishi va stajirovkalarini tashkil etilmagan.

2. O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyatida qo'llagan zamonaviy metodikalarni ommalashtirishda kafedra professor-o'qituvchilarining faolligi past.

3. Kafedra ish rejasida 2025-yil Yanvar-iyun oylarida rejalashtirgan ilmiy-uslubiy ishlarning bajarilishi qoniqarli emas.

4. Kafedra ish rejasida belgilangan nashr ishlari to'liq bajarilmagan.

5. Kafedrada xalqaro yoki milliy ilmiy-tadqiqot grantlari loyihalarida ishtirok etadigan professor-o'qituvchilar ishtiroki ta'minlanmagan.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etilishida kafedra o'qituvchilarining ishtiroki talab darajasida emas.



Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Ishchi guruhning xulosaviy ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari v/b M.Fayziyevaga:
  - kafedrada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha 1 hafta muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;
  - SamVPMM professor-o'qituvchilari faoliyati samaradorligini o'rganishda xolisona yondashuv hamda jarayonni samarali tashkil etishda shaffoflik ta'minlansin.
3. Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedraasi mudiri A.Axmedovga:
  - mahalliy va xorijiy grantlarga ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
  - kafedra ish rejasida rejalashtirgan ilmiy-uslubiy ishlarning bajarilishiga jiddiy e'tibor qaratish hamda belgilangan nashr ishlarini o'z vaqtida tayyorlab Kengashdan o'tkazish;
  - kafedra professor-o'qituvchilarining belgilangan tartibda yetakchi xorijiy ta'lim tashkilotlarida stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta'minlash;
  - umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini tashkil etilishida kafedra professor-o'qituvchilarining ishtirokini ta'minlash;
  - kafedra rejasida kiritilgan barcha ish turlarini o'z vaqtida tashkil etilishini nazorat qilish;
  - bir hafta muddatda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilsin.
4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

SamVPMM Kengash kotibi



A.Sobirov

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi  
Q A R O R I**

2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri

5/3.1-son

**Tinglovchilardan olingan so'rovnomalar tahlili to'g'risida.**

Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i Z.Pardayevning "Tinglovchilardan olingan so'rovnomalar tahlili to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i Z.Pardayev so'zga chiqdi: – 2025-yil davomida tinglovchilardan onlayn shaklda so'rovnomalar olib kelinayotgan edi. Yanvar-iyun oylari so'rovnomalar onlayn olingan bo'lsa, sentabr va oktabr oylarida qo'shimcha oflayn shaklda ham so'rovnomalar o'tkazildi.

**Sentabr oyida:**

"Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari";

"Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari" 2-guruh;

"Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari (o'zbek sinflarda)" 1-guruh;

"Ingliz tili o'qituvchilari" 2-guruh;

"O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari (Ona tili va adabiyoti)" 2-guruh;

"Rus tili (o'zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o'qituvchilari" 1-guruh;

"Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari" guruhlaridan.

**Oktabr oyida:**

"Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari"

"Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari"

"Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari

"O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari (Ona tili va adabiyoti)" 3-guruhi

"Musiqqa madaniyati o'qituvchilari" guruhi

"Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari" 3-guruh

"Davlat va Huquq asoslari fani o'qituvchilari" guruhlaridan olindi

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida quyidagi ma'lumotlar to'plandi:

**Sizningcha, malaka oshirish kursi tinglovchilarining yana qanday istak va xohishlarini hisobga olishimiz, o'qitishda nimalarga, qanday o'quv dastur, darsliklarga ko'proq e'tibor berish kerak deb hisoblaysiz?**

AKT mashg'ulotlari ko'paytirish lozim, Me'yoriy hujjatlardan dars kam, maktabga amalyotga chiqichga e'tibor berish lozim, Notiqlik bo'yicha darslar qo'yilsa, Psixologiya bo'yicha soatlarni ko'paytirish kerak, maktab darsliklari bo'yicha ham darslar qo'yilsa, ko'proq yangi metodlar o'gatilishini istardik, ko'proq mantiqiy topshiriqlarni o'rganishni xoxlayman, 4 K modulidan foydalanishni istardik, darslar ko'proq nazariy bo'lmasdan amaliy ishlarga yo'naltirish lozim, moliyaviy



savodxonlik, yangi qarorlar bo'yicha ko'proq tushunchalar berilsa, hozir o'zimiz bilgan ma'lumotlarni takrorlayapmiz xolos, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'tilsa va nazariy bilimlardan ko'ra amaliy bilim va metodikalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq, suniy intellekt bo'yicha soatlarni ko'paytirish kerak,

**Ushbu kurs davomida qaysi o'quv modullari (fan)dan yetarlicha yangi bilim, ko'nikma oldingiz va qaysi modulni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keldingiz? (modul nomini ko'rsating)**

Boshqaruv modulidan, 2.1-modul (Rahbarning kasbiy rivojlanishi va o'zaro harnkorlik)idan, 3.2-modul (Rahbar ma'naviyati va boshqaruv madaniyati)idan, Psixologiyadan, Tanlov modulidan, Ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy huquqiy hujjatlardan, Formativ va summativ baholash tamoyillari fanidan, Ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt moduli bo'yicha, 4 K modeli bo'yicha bilimga ega bo'ldik, 2.3-modul zamonaviy ta'lim paradigmalari bo'yicha qiyinchiliklarga duch keldik, 5E bo'yicha kerakli ma'lumot oldim, 3.4-modul bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldik.

**Pedagogik mahorat markazi o'qituvchilarining o'z faoliyatini takomillashtirishi uchun takliflaringiz?**

Aniq taklifim yo'q, interfaol metodlardan ko'proq foydalanish lozim, amaliy darslarga ko'proq e'tibor berilishi, o'qituvchilar o'z ustida ko'proq ishlashi lozim, xorijiy tajribalarni ko'proq o'rganishni, o'qituvchilar fikrlarini yanada aniq va lo'nda yetkazish kerak, inkluziv ta'lim dasturlari ustida ishlansa, ba'zi o'qituvchilarning muomila madaniyati o'zgartirilishi kerak, ba'zi ustozlar darsdan tashqari fikrlarni ham aytib o'tdi, shuni isloh qilish kerak. Tinglovchilar bilan yakka tartibda ishlash kerak, Markazda yosh o'qituvchilarni ko'paytirish kerak, o'qituvchilar o'z ustida ko'proq ishlash kerak, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'proq tashkil qilish, ko'proq elektron qo'llanmalar yaratishini, xorijda malaka oshirib, tinglovchilar bilan tajribalarini almashish, qaror va qonunlar bo'yicha ko'proq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim, o'qituvchilar ko'proq kompyuterlardan foydalanib dars o'tishini, Markaz o'qituvchilari maktablarga borib dars o'tishi

**Sizni Pedagogik mahorat markazida yaratilgan shart-sharoitlar va o'tkazilgan (o'tkazilgan bo'lsa) tadbirlar qoniqtirdimi?**

Uchrachuvlar va tadbirlarni ko'paytirish kerak, Markazning kompyuter xonalarini ko'paytirish kerak, xojatxonalarga e'tibor berish kerak, oshxonalar sharoitini, sanitar-gigienik xolatini yaxshilash kerak, yotoqxona shart-sharoitlarini yaxshilash lozim, ko'proq taniqli insonlar bilan uchrashuvlar tashkil qilish kerak, parta, stol-stullar eskiligini, xojatxonalar tozamasligini (suvi ishlamaydi) etiroz sifatida aytib o'tgan, o'quv xonalarini qayta jihozlash kerak, bu tadbirlar faqat ko'zbo'yamachilik, asosan turli sayohatlar tashkil etish kerak, markazda internet tezligi past, o'quv texnikalari etarli emas, tadbirlar qisman qoniqtirdi, Tadbirlar zerikarli bo'ldi (Til bayrami) deb izoh bildirgan.

**Malaka oshirish kursi davomida Sizga nisbatan ta'magirlik yoki qonunga zid bo'lgan xatti-harakatlar bo'ldimi? (bo'lsa F.I.Shni kiriting)**

Barcha tinglovchilar malaka oshirish davrida ta'magirlik yoki qonunga zid bo'lgan xatti-harakatlar bo'lmaganligini yozgan.



**Malaka oshirish kursi jarayonida o'qituvchilarning muomala madaniyati, odob-axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlari uchradimi, qanday noxush holatlar ranjitdi? ( F.I.Shni kiriting)**

Guruhdagi barcha tinglovchilar malaka oshirish kursi jarayonida o'qituvchilarning muomala madaniyati, odob-axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlari uchramaganlini yozishgan.

**Malaka oshirish tizimining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qanday takliflar kiritgan bo'lar edingiz?**

Tarixiy obidalarga ekskursiyar tashkil qilish lozim, tinglovchilarga erkinlik kerak, dars jarajonida mavzuga oid testlarga e'tibor qaratish lozim, darslarda pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanishni taklif etgan, dars xonalarning pol qismini ko'rib chiqish kerak, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish kerak, psixologiya va trening mashg'ulotlarni ko'paytirish kerak, tinglovchi darsliklar ustida ishlash bo'yicha ham metodik tavsiyalar berilishni yo'lga qo'yihi maqsadga muvofiqqligini, AKT bo'yicha ko'proq darslar qo'yilishi kerak, ko'proq yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni, ko'proq o'z ustida ishlaydigan o'qituvchilar dars o'tishini, mutaxassislik fanlari ko'proq o'tilishini, inkluziv ta'lim bo'yicha yangi metodlar ishlab chiqilsa, yotoqxona ichida oshxona bo'lishini kerak, xar bir xonaga sovitish vositasi o'rnatilishi kerak, tumanlarda ham malaka oshirish markazlari bo'lishini, 5 daqiqa kechikgan oqituvchilarni ertalabdan kayfiyatini tushib darvozani oldida yig'ish yaxhi emas, tinglovchilarga nisbatan bosimni biroz yumshatish kerak, mashinalar turar joyi yetarli emas, tinglovchilar uchun yotoqxona, tushliklarini moddiy qo'llab-quvatlash borasida hamkor tashkilotalar bilan kelishuv imzolash, texnik vositalarni ishlashini doimiy nazorat qilib turish (televizor yaxshi ishlamadi, ovozi chiqmadi), ko'proq yangi metodikalarni o'rgatishga etibor qaratish kerak, yotoqxonani kengaytirishni va oshxonalarda gaz pilitalar etishmasligini bildirgan.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i Z.Pardayevning "Tinglovchilardan olingan so'rovnomalar tahlili to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tinglovchilar o'rtasida so'rovnomalar doimiy tashkil etilsin hamda ma'lumotlar SamVPMM professor-o'qituvchilariga yetkazilsin.
3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**SamVPMM Kengash raisi**

**A.Sobirov**

**SamVPMM Kengash kotibi**

**D.Yunusova**





**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi  
Q A R O R I**

*2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri*

*5/3.2-son*

**SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida.**

SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovanning "SamVPMM professor o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.2-bandi SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish to'g'risida.

**Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi Ergasheva Gulshoda Amirovnani istisno tariqasida v/b dotsentilikka tavsiya etish to'g'risida.**

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida istisno tariqasida v/b dotsent ilmiy unvoniga nomzod Ergasheva Gulshoda Amirovna haqida ma'lumot:

Ergasheva Gulshoda Amirovna xalq ta'limi tizimida pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish, ularni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etib, yaxshi natija va tajribaga ega bo'lgan.

Bugungi kunga qadar iqtidorli olim va malakali pedagog sifatida o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar, shuningdek, 100 dan ortiq ilmiy, uslubiy va ommabop nashrlar muallifidir. 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 6 ta uslubiy qo'llanma (hammualliflikda), 25 ta uslubiy ko'rsatma, OAK e'tirof etgan jurnallarda 12 ta, xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida 15 ta, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 35 ta ilmiy maqola va tezislar nashr ettirgan. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan.

G.Ergasheva boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va tinglovchilari uchun "Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi", "Husnixat malakalarini takomillashtirish" moduli bo'yicha o'quv dasturi va o'quv metodik majmua ishlab chiqib, shu mavzuda qisqa muddatli kurs tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflar uchun "Matematikadan didaktik topshiriqlar", 1-4 sinf o'quvchilari uchun "Matematikadan test topshiriqlari" "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga orfografiyani adaptiv o'qitishda dasturiy pedagogik vositalardan foydalanish texnologiyasi" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalar nashr etdi.

"Boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiya uzviyligining o'ziga xos metodik asoslari", "Boshlang'ich ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar", "Boshlang'ich ta'lim fanlarining nazariy-amaliy, metodik asoslari" "Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari" hamda boshlang'ich sinflarda o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursi uchun



“Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi”, “Husnixatga o‘rgatish metodikasi” modullari bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar to‘plamlari ayni kunda viloyat pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida amalda foydalanilmoqda.

G.Ergasheva qaysi vazifada faoliyat ko‘rsatmasin, doimo o‘ziga yuklatilgan topshiriq hamda vazifaga yuksak mas’uliyat bilan yondashadi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini ko‘rsatadi. 2019-yil “Xalq ta’limi a’lochisi” estalik nishoni bilan taqdirlangan.

G.Ergasheva ayni paytda Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida katta o‘qituvchisi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Faoliyat jarayonida, ilmiy-pedagogik yo‘nalish hamda ijtimoiy hayotda jonkuyarlik namunalarini ko‘rsatib ishlab kelmoqda. O‘ziga berilgan har qanday vazifani vijdonan va sharaf bilan uddalaydi.

**Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida katta o‘qituvchisi Rabbonayeva Dildora Tolipovnani istisno tariqasida v/b dotsentilikka tavsiya etish to‘g‘risida.**

Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida istisno tariqasida v/b dotsent ilmiy unvoniga nomzod Rabbonayeva Dildora Tolipovna haqida ma’lumot:

D.Rabbonayeva ko‘p yillik tajribaga ega ilg‘or pedagog sifatida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda viloyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Boshlang‘ich ta’limni o‘qitish metodikasi”, “Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar” modullari asosida dars o‘tib, samarali mehnat qilib kelmoqda.

D.Rabbonayeva faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi hisoblanadi, 1 ta darslik, 5 ta uslubiy qo‘llanma, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 30 ta uslubiy ko‘rsatma, OAK e’tirof etgan jurnallarda 12 ta, xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida 30 ta, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 30 ta ilmiy maqola va tezislar nashr ettirgan.

D.Rabbonayeva Respublikamiz umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashadigan PIRLS xalqaro tadqiqoti dasturi doirasida ilmiy-uslubiy faoliyat yuritib kelmoqda. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va tinglovchilari uchun “PIRLS – o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash dasturi” moduli bo‘yicha o‘quv dasturi va o‘quv metodik majmua ishlab chiqib, shu mavzuda qisqa muddatli an’anaviy va noan’anviy (masofadan) shaklda kurs tashkil etdi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun “PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi”, “PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami (1-qism)”, “PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami (2-qism)” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar nashr etdi.

D.Rabbonayevaning “O‘qish darsliklarida berilgan matnlar orqali o‘quvchilar milliy ma’naviyatini shakllantirish”, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘zlashtirish darajasini takomillashtirish usullari”, “Matematika fanidan nazorat ishlari to‘plami”, “Boshlang‘ich ta’lim uchun bayram tartiboti”, “Ona tili fanidan lug‘at va tekshirish diktantlari”, “O‘qish darslari uchun taqdimotlar tayyorlash”,



“Boshlang‘ich sinf matematika darslarini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish”, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi”, “Kichik yoshdagi o‘quvchilarda chiroyli yozuv malakasini shakllantirish metodikasi”, “Boshlang‘ich sinfda tabiatshunoslik darslarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish”, “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish”, “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy darslarni tashkillashtirish”, “Maktab yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash ish rejasi”, “Matematika darslarida o‘lchov birliklarini o‘rgatish metodikasi”, “Boshlang‘ich ta‘limda “Muzyorar” mashqlardan foydalanish”, “Boshlang‘ich sinflar uchun tadbir tartibotlari”, “Boshlang‘ich sinflarda “Undalma” mavzusini o‘rgatish”, “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni miqdorlar bilan tanishtirish”, “Savod o‘rgatish darslarida ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish”, “Didaktik o‘yinlar–ta‘lim samaradorligining omili”, “Tabiatshunoslik darslarida “Venn diagrammasi”dan foydalanish” nomli uslubiy ko‘rsatmalari ham nashr etilib, ta‘lim jarayoniga tatbiq etilgan.

Respublika miqyosidagi hamda xalqaro xorijiy ilmiy jurnallarda o‘zining dolzarb mavzularda tayyorlagan qator tezis va ilmiy maqolalari nashr etilgan.

Kompetentsiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturini tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha viloyat metodika markazining ekspert guruhi a‘zosi sifatida faol ishtirok etdi.

Markazda AQSh mutaxassisi J.Smetana “Ta‘limni tashkil etish usullari”, AQSh STEAM mutaxassisi Allen Miller tomonidan tashkil etilgan “Ta‘limda STEAM yondashuvlar” mavzusidagi o‘quv kurslarida ishtirok etib sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. PIRLS xalqaro tadqiqoti dasturi mavzusida respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferentsiya va xalqaro xorijiy jurnallarda o‘zining loyiha va maqolalari bilan ishtirok etdi.

“Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari hamda umumiy o‘rta ta‘limning nizomida belgilangan vazifalarni maliyotga joriy etish” mavzusida 2017-yil iyun oyida tashkil etilgan kursda qatnashib, guvohnoma oldi.

Ta‘lim sohasidagi mehnatlari uchun 2016-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi a‘lochisi”, 2020-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi fidoyisi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandi.

D.Rabbonayeva hududiy markazning jamoat ishlarida ham faol qatnashadi. 2010-2020 yillarda markaz xotin-qizlar jamoasiga sardorlik qilib kelgan.

Yuqori malakali pedagog, fidoyi va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va mahalla ahli o‘rtasida hurmat qozongan.

**Kengash raisi A.Sobirov** – ushbu masala bo‘yicha savollar, fikrlar bo‘lsa, marhamat.

**SO‘ZGA CHIQDI:** K.Haydarov – G.Ergashova va D.Rabbonayevalar ko‘p yillardan buyon ta‘lim sohasida samarali mehnat qilib kelishmoqda. Bugungi kunda Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida tinglovchilarga dars berish, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar hamda tumanlarda mahorat darslari, seminarlarni tashkil etish bilan bir qatorda, umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchilarini o‘z ustida ishlatish mexanizmini yaratish yo‘nalishlarida samarali faoliyat olib borishmoqda.



Ta'lim tizimidagi ushbu ilmiy-amaliy faoliyatini hisobga olgan holda G.Ergashova va D.Rabbonayevalarni istisno tariqasida ilmiy unvonga tavsiya etish haqli deb o'ylayman.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovaning "SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Dotsent ilmiy unvoniga istisno tariqasida v/b sifatida tavsiya etish to'g'risida":

2.1. Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası katta o'qituvchilari Ergasheva Gulshoda Amirovna hamda Rabbonayeva Dildora Tolipovnalari Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablariga muvofiq istisno tariqasida dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga o'tkazilsin.

3. Talabgorlar bir yil muddatdan keyin tegishli hujjatlarni Oliy attestatsiya komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritilishi lozimligi belgilab qo'yilsin.

4. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusova va inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmamga qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova





**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi  
Q A R O R I**

2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri

5/3.3-son

**“Kembridj tajribasi asosida maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish” nomli qisqa muddatli kursining o'quv dasturini tasdiqlash to'g'risida.**

Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning ““Kembridj tajribasi asosida maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish” nomli qisqa muddatli kursining o'quv dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ““Kembridj tajribasi asosida maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish” nomli qisqa muddatli kursning o'quv dasturini tasdiqlash uchun taqdim etilgan. Dasturda qisqa muddatli kursning mohiyatidan kelib chiqib maqsadi, vazifasi, talablari keng yoritib berilgan.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning ““Kembridj tajribasi asosida maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish” nomli qisqa muddatli kursining o'quv dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. ““Kembridj tajribasi asosida maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish” nomli qisqa muddatli kursining o'quv dasturi tasdiqlansin.

3. Qisqa muddatli kurs faoliyati tasdiqlangan ish reja asosida tashkil etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash kafedra mas'ullarining zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazoratini o'z zimmasiga qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova





**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi  
Q A R O R I**

2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri

5/3.4-son

**SamVPMM professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida.**

SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.4. bandi markaz professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida bo'lib, professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan monografiya, o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar kengash tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

SamVPMM kafedra professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib kafedra bayonnomalaridan ko'chirma taqdim qilingan.

SamVPMM professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida.

| <b>Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası</b> |                                                      |                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                              |         |
|--------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 1                                                                  | A.Axmedov                                            | Globalashuv jarayonida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy ta'siri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari | T: A.Saidov – Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti professori, psixologiya fanlari doktori.<br>I.: K.Oqilova – Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası dotsentl, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). | 151 bet |
| <b>Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası</b>                  |                                                      |                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                              |         |
| 2                                                                  | T.Kadirov<br>V.Turapov<br>Sh.Xujakulov<br>Sh.Abduyev | Raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish metodikasi                                                                                 | T.:J.Mannabov – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, v/b dotsent.<br>I.:B.Usmanov – Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası dotsenti.                           | 124 bet |
| <b>Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi</b>                           |                                                      |                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                              |         |
| 3                                                                  | X.Rajabova                                           | Boshlang'ich sinf                                                                                                                               | T.:X.Ismoilov –Sh.Rashidov                                                                                                                                                                                                                   | 68      |



|  |  |                                                                |                                                                                                                                                                                                      |     |
|--|--|----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
|  |  | matematika darslarida foydalanish uchun didaktik o'yin turlari | nomidagi Samarqand davlat universiteti Nazariy va amaliy fanlar kafedrası o'qituvchisi.<br>I.:D.Rabbonayeva –<br>Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi. | bet |
|--|--|----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|

Qo'lingizdagi qaror loyihasi bo'yicha fikr va savollar bo'lsa marhamat.  
Yuqoridagilar muhokama etilib va Markaz Kengashi

### QAROR QILADI:

1. SamVPMM Kengash kotibi D.Yunusovning "SamVPMM professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Monografiya" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

| Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası |           |                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                              |         |
|--------------------------------------------|-----------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 1                                          | A.Axmedov | Globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat va internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy ta'siri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari | T: A.Saidov – Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti professori, psixologiya fanlari doktori.<br>I.: K.Oqilova – Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). | 151 bet |

3. SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "O'quv qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

| Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası |                                                     |                                                                 |                                                                                                                                                                                                                   |         |
|--------------------------------------------|-----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 1                                          | T.Kadirov<br>V.Turapov<br>Sh.Xujakulov<br>Sh.Abduev | Raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish metodikasi | T.:J.Mannabov –Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Samarqand kampusi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, v/b dotsent.<br>I.:B.Usmanov – Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası dotsenti. | 124 bet |

4. SamVPMM bo'lim xodimi tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Uslubiy qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

| Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi |            |                                                                                  |                                                                                                                                          |        |
|-----------------------------------|------------|----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|
| 2                                 | X.Rajabova | Boshlang'ich sinf matematika darslarida foydalanish uchun didaktik o'yin turlari | T.:X.Ismoilov –Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Nazariy va amaliy fanlar kafedrası o'qituvchisi.<br>I.:D.Rabbonayeva – | 68 bet |



|  |  |  |                                                                                     |  |
|--|--|--|-------------------------------------------------------------------------------------|--|
|  |  |  | Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi. |  |
|--|--|--|-------------------------------------------------------------------------------------|--|

5. SamVPMMning barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- SamVPMM professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan monografiya, o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalarni nashr me'yorlari asosida tayyorlash hamda chop etishni tashkillashtirish;

- nashr etilgan metodik ishlarni SamVPMMning ARMga belgilangan (monografiya 5 ta, o'quv qo'llanma 5 ta, uslubiy qo'llanma 15 ta) nusxasini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. Nashr etilgan metodik ishlarni SamVPMM saytiga joylashtirish axborot resurs markazi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosi nazorati akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari v/b M.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova





**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil  
31-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishi**

**Q A R O R I**

*2025-yil 31-oktabr  
Samarqand shahri*

*5/3.5-son*

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarining Xitoy Xalq Respublikasining YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi (Teacher Education Centre, UNESCO; Research Institute for International and Comparative Education, SHNU)da rejalashtirilgan stajirovka xarajatlarini qoplab berish to'g'risida.**

SamVPMM direktori A.Sobirovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarining Shanxay Pedagogika Universitetida (Xitoy) rejalashtirilgan stajirovka xarajatlarini qoplab berish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM direktori A.Sobirov so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli Qarori, "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida 2025-yil 15-may kuni maktab ta'limida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi asosiy vazifalar to'g'risida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi 262-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida SamVPMM Nizomining 25-bandiga (SamVPMM xodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirishi hamda stajirovka o'tashi) muvofiq **Xitoy Xalq Respublikasining YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi (Teacher Education Centre, UNESCO; Research Institute for International and Comparative Education, SHNU)da SamVPMM professor-o'qituvchi va xodimlari: Sobirov Anvar Kuvandikovich, Samyaev Anvar Kadirovich, Norkulov Ulug'bek Mamadaliyevich va Shanazarova Nigora Abirkulovnalarni joriy yilning IV choragida "Aloqa va Yo'l" Shanxay tajriba almashinuvi loyihasi doirasida malaka oshirishi rejalashtirilgan.**

Shuni inobatga olgan holda, malaka oshirish bilan bog'liq safar xarajatlari (aviachipta, mehmonxonada turish, kunlik xarajatlar) uchun to'lovlarni SamVPMM Nizomining 25-bandiga (markaz xodimlarining xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida malaka oshirishi bilan bog'liq xarajatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish) muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlari: A.Sobirov, A.Samyaev, U.Norkulov va N.Shanazarovalarning Xitoy Xalq Respublikasining YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi (Teacher



Education Centre, UNESCO; Research Institute for International and Comparative Education, SHNU)da rejalashtirilgan malaka oshirish bilan bog'liq safar xarajatlari (aviachipta, mehmonxonada turish, kunlik xarajatlar) SamVPMM Nizomining 25-bandiga muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplab berilsin.

2. SamVPMM professor-o'qituvchi va xodimlarining malaka oshirish dasturida ishtiroki hamda yakuniga ko'ra mahorat darslarini tashkil qilish pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovga yuklatilsin.

3. SamVPMM professor-o'qituvchi va xodimlarining rejalashtirilgan malaka oshirish safar xarajatlarini qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirish bosh hisobchi B.Norov zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

SamVPMM Kengash raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengash kotibi

D.Yunusova

